IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

ZEBO MIRZO SHE'RLARI BADIIYATI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
"UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY" NOTM. Andijon

Annotatsiya
Maqolada Zebo Mirzayevaning ayrim she'rlari tahlilga tortilgan. Shoiraning badiiy mahorati, voqelik haqidagi mushohadalari haqida atroflicha mulohazalar berilgan.
Kalit so'zlar
Hissiy-badiiy obraz, estetik zavq, lirizm, poetik obraz, poetik ramz.

She'riyatning tabiati o'zgarmaydi. Shoir so'z tanlar ekan, uni sayqallab, mazmunan salmoqdor, badiiy jihatdan jozibali va jarangdor bo'lishiga erishishi kerak. So'z har bir ijodkor she'riyatida chuqur ichki mazmunga, hissiy-badiiy obrazga aylanishi bilan muhim va ahamiyatlidir. Shuningdek, "...hayotiy tuyg'ular zamiriga voqe bo'lgan, chuqur fikr va samimiy hissiyotlar evaziga yaratilgan she'r"[1] kitobxonga ruhiy ozuqa va estetik zavq bag'ishlashi bilan ham alohida vazifa bajara oladi. Badiiy adabiyotda ruhiy olamdagi o'zgarishlar go'zallik qonunlari asosida ifoda etilar ekan, bu o'z-o'zidan, shunchaki ro'y bermaydi. Ijodkor murakkab va ziddiyatli ruhiy to'qnashuvlarni, ijodiy qiynoqlarni qalban his qilganda, voqelikka nisbatan ijtimoiy-estetik munosabat to'la yetilganda she'r – ehtiyoj farzandi (Abdulla Oripov) tug'iladi. Jumladan, Zebo Mirzaevaning qator she'rlari ana shunday ehtiyoj tufayli dunyoga kelganga o'xshaydi. Uning she'rlarida ishq iztirobi shunday tasvirlanadiki, she'rlarini o'qigan kitobxon ayol qalbidagi olov taftidan "kuyib" ketadi.

Yolg'izlikning girdoblarida,
Chorasizlik bo'lganida tosh.

Mening uchun yuragingizdan,

To'kasizmi biror tomchi yosh?

Kesib o'tsa nigohingizni,

Muhabbatning qovjiroq labi.

Siz ham...

qattiq sog'inasizmi?

Sevasizmi siz ham men kabi?[2] satrlarida shoira tuyg'ularini kuchli lirizm orqali badiiylashtiradi. Voqelikdagi mavjud yoki o'zaro yaqin, o'xshash narsa va hodisalardan poetik obraz va lavhalar yaratish shoirning iste'dodiga bog'liq. Biroq bir-biridan uzoq narsa-predmet, voqea-hodisalarni uyg'un holatga keltirib obraz yaratish esa ijodkordan alohida mas'uliyat talab qiladi. Yuqoridagi

[1]Umurova G. Zulfiya badiiy olami va poetik maktabi: Fil.fan….dokt. (DSc) dissertatsiya. – Samarqand, 2019. – B.16.

[2] Mirzaeva Z. Nur kukunlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B.14.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

she’rda jumlalar haqiqatga mos kelmasa-da, o‘quvchi shunday holatni qalban his qiladi. Shoiraning ijodiy eksperimentlariga asoslangan fikrlari o‘ziga xos badiiy kuchga egaligi bilan ahamiyatga molik.

She’rda konkret voqelik aniq jumlalarda bayon etilsa, mazmun tugal va ifoda lo‘nda bo‘lsa, hissiylikning ta’sir kuchi kamayib ketishi shubhasiz. Zebo Mirzaeva lirikasida esa hissiyot dengiz kabi jo‘sh uradi. U tasavvur kuchini shunday ishga soladiki, ba’zida o‘quvchi uning she’rlarida uchraydigan tashbehlarga chindan ishonadi.

Oqqush ko‘z yoshiga yuvdim yuzimni,

Qarg‘aga tilimni berdim, siyladim.

Ketdim, daryolarga soldim izimni,

Baliqlar tilida biyron so‘zladim[3].

“...badiiy ijod jarayonida g‘oyaviy niyatning tashqi, zohiriy unsurlari emas, balki ichki botiniy jihatlari muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega”[4] ekanligini hisobga olsak, yuqoridagi she’rda qo‘llanilgan poetik obrazning, avvalo, qanday ma’no-mazmun ifodalayotganini tahlil qilishimiz kerak bo‘ladi. *“Oqqush ko‘z yoshi”, “Qarg‘aga til berish”, “Daryoga iz solish”, “Baliqlar tilida so‘zlashi”*ga lirik qahramonni nima majbur qilmoqda? U ana shunday ramziy fikrlash orqali nimani uqtirmoqchi bo‘lyapti? Bu kabi savollar barchani o‘ylantirishi tabiiy. Avvalo, she’rda qo‘llanilgan poetik ramzlarni tasniflab olsak: bizningcha *oqqush, daryo, baliq* obrazlari ijobiy, *qarg‘a* esa salbiy obraz sifatida ma’lum. Xalq qo‘shiqlarida oqqush balog‘atga yetgan go‘zal qiz, qarg‘a yomon xabarchi, daryo oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi chegara, visolga yetish, qizlik va ayollik chegarasi kabi talqinlarga ega[5]. Ushbu folklor an’analari ta’sirida shakllangan poetik ramzlar orqali shoira kechinma tasvirini berar ekan, an’anaviy ma’no ko‘lamini kengaytirib, ularga yangi ma’no yuklay olgan. Shoira she’ridagi *oqqush*ni samimiylik, sevgi ramzi, *daryo*ni poklik, *baliq*ni ishonch sifatida qabul qilsak, lirik qahramon samimiy, chin sevgi borligiga, dunyoda adl, pok vijdon bilan yashashiga, barchaga birdek ishonish mumkinligiga va hattoki (*qarg‘a* tilida gap turmaydigan kishilarga ishora) ikkiyuzlamachi, yolg‘onchi kishilarga ishonch berib siylashiga ishonadi va ishontiradi.

She’riyatda kuzatiladigan ana shunday hissiy falsafiylik voqelikning abstraktlashuviga, o‘rni bilan tig‘izlashuviga, shuningdek, fikrlarning favqulodda chaqindek chaqnashiga sabab bo‘ladi. Umuman olganda, badiiy adabiyotda “...ijodkor o‘z fikrlarini ifodalovchi so‘z qidiradi; uning uchun niyatini va tuyg‘ularini aniq, ravshan yetkazib beruvchi ifoda hamda obrazni tanlashi muhim”[6]lik kasb etadi. Ijodkor borliqni sintez qilar ekan, bunda u so‘zni hissiy munosabat uyg‘otuvchi obrazga aylantirishi shart va zarurligini his etadi.

Adabiyotlar

1. Abdulla Sher. Estetika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – B. 314.
2. Брюсов В. Ремесло поэта. – М.: Современник, 1981. - С.169.

[3] Mirzaeva Z. Nur kukunlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B.44.
[4] Abdulla Sher. Estetika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – B. 314
[5] Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – Toshkent:Fan,2020. – B.111
[6] Брюсов В. Ремесло поэта. – М.: Современник, 1981. - С.169.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

3. Mirzaeva Z. Nur kukunlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B.14.
4. Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – Toshkent:Fan,2020. – B.111.
5. Umurova G. Zulfiya badiiy olami va poetik maktabi: Fil.fan….dokt. (DSc) dissertatsiya. – Samarqand, 2019. – B.16.

WORDLY
KNOWLEDGE